

XITOIY VA O‘ZBEK INTERNET TILLARIDAGI QISQARTMALARNI QIYOSIY TATQIQ QILISH

Djurayev Dilshod Mamadiyorovich

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq tillari filologiyasi fakulteti dekani

Sayfiddinova Marjona Turg‘un qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Lingvistika: Xitoy tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15222636>

Annotatsiya. Ushbu maqola Xitoy va o‘zbek internet tillaridagi qisqartmalarni qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada qisqartmalar tushunchasi, ularning internet tilidagi o‘rni va xususiyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, Xitoy va o‘zbek internet tillarida qisqartmalar shakllanishi, ularning asosiy turlari va qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida har ikkala tildagi qisqartmalar tizimidagi umumiylik va farqlar aniqlanib, internet lingvistikasi hamda tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan muhim xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: qisqartmalar, internet tili, Xitoy tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному анализу сокращений в китайском и узбекском интернет-языке. В статье рассматриваются понятие сокращений, их роль и особенности в интернет-коммуникации. Также проводится анализ формирования сокращений в китайском и узбекском интернет-пространстве, их основные типы и особенности применения. В результате исследования выявляются сходства и различия систем сокращений в обоих языках, а также делаются важные выводы с точки зрения интернет-лингвистики и переводоведения.

Ключевые слова: сокращения, интернет-язык, китайский язык, узбекский язык, сравнительный анализ

Abstract: This article is dedicated to the comparative analysis of abbreviations in Chinese and Uzbek internet language. It examines the concept of abbreviations, their role, and features in internet communication. Furthermore, the article analyzes the formation of abbreviations in the Chinese and Uzbek internet space, their main types, and usage characteristics. As a result of the study, similarities and differences in the abbreviation systems of both languages are identified, leading to significant conclusions from the perspective of internet linguistics and translation studies.

Keywords: abbreviations, internet language, Chinese language, Uzbek language, comparative analysis, linguistics

So‘nggi yillarda internet insonlarning kundalik hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib, global muloqot vositasiga aylanmoqda. Bu jarayon natijasida til hodisasi sifatida internet tili ham shakllanib, unga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida internet tili alohida til hodisasi sifatida shakllanib kelmoqda. Internet foydalanuvchilari tezkor va ixcham aloqa o‘rnatish maqsadida qisqartmalardan keng foydalanadilar. Bunday lingvistik hodisa nafaqat internet muloqotini osonlashtiradi, balki har bir til tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Xitoy va o‘zbek internet tillari ham qisqartmalar yaratish jarayonida o‘ziga xos usullarni qo‘llaydi. Ushbu maqolada har ikkala til tizimidagi qisqartmalarning shakllanish tamoyillari, ularning funksional xususiyatlari va lingvistik jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Ikki davlat internet qisqartmalarining ta'rifi va turlari haqida

Qisqartmalar – insonlar tomonidan muloqotni yanada ixcham, tushunarli va qulay qilish maqsadida ba'zi so'z yoki iboralarning maxsus qisqartirilgan shaklida qo'llanishidir. Internet muhitida shakllangan qisqartmalar esa foydalanuvchilarning tezkor va samarali muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqib yaratilgan tildagi ixcham birliklar hisoblanadi. Internet tilida ishlatiladigan qisqartmalarining aksariyati harflar va raqamlardan tashkil topadi. Xitoy internet tilida Pinyin qisqartmalari alohida fenomen sifatida shakllangan bo'lib, ular asosan xitoycha so'z yoki iboralarning dastlabki harflari asosida yaratiladi. Ushbu qisqartmalar ilk bor internet foydalanuvchilari, xususan, turli fan-klublar va muxlislar jamiyatlari o'rtasida ommalasha boshlagan. Internet tilidagi pinyin asosidagi harf qisqartmalari so'z yoki iboralarning xitoycha pinyin transkripsiyasining bosh harflari birikmasi shaklida hosil bo'lib, muayyan so'z yoki iboralarni anglatadi. Bunday til shakli dastlab mashhurlar va san'atkorlarning muxlisleri orasida ommalashgan.

汉语网络用语中的缩略语

排序	汉语缩略语	汉语原词语	乌兹别克语对应词语
1	NSDD	你说得对	Sen to'g'ri aytayabsan
2	SJB	神经病	Jinni; axmoq
3	DLRB	迪丽热巴	Dilrabo
4	DDDD	懂的都懂	Tushungan tushundi
5	YYSY	有一说一	Rostini gapirish
6	GG	哥哥	Aka
7	GKD	搞快点	Tezroq qiling
8	YYDS	永远的神	Hudo abadiy
9	XSWL	笑死我了	Kulaverib o'lib qolaman
10	DBQ	对不起	Uzur

Xitoy internet tilida ba'zan ayrim raqamlar kombinatsiyasi orqali ularning talaffuzi xitoycha so'z yoki iboralarga fonetik jihatdan o'xshashligidan foydalanib, muayyan ma'nolar ifodalanadi. Bu hodisa "xitoycha fonetik raqam qisqartmalari" deb ataladi. Biroq bunday qisqartmalar soni nisbatan kam bo'lib, ularning ishlatilish imkoniyatlari cheklangan. Chunki raqamlar orqali ifodalangan so'z yoki iboralarning ma'nosi aniq bo'lishi talab etiladi. Shu sababli, bunday qisqartmalar boshqa qisqartma turlariga qaraganda kamroq uchraydi.

Bundan tashqari, xitoycha fonetik raqam qisqartmalaridan foydalanadigan auditoriya bir-biridan sezilarli farq qiladi. Shu bois, ularning tarqalish doirasi ham keskin farqlanadi. Quyida eng ko'p uchraydigan xitoycha fonetik raqam qisqartmalarining namunaviy misollari keltirilgan.

汉字谐音数字缩略语

排序	汉字谐音数字缩略语	汉语原词语	对应的乌兹别克语词语
1	886	拜拜了	Xayr
2	520	我爱你	Men seni sevaman
3	1314	一生一世	Seni umrbod sevaman
4	885	抱抱我	Meni quchoqla
5	771	亲亲你	Seni o'paman
6	778	吃吃吧	Ol-ol ye
7	7456	气死我了	Meni jahlim chiqdi
8	3113	想你一生	Seni butun umr so'g'inaman
9	531	我想你	Men seni so'g'indim
10	987	对不起	Uzur

O'zbek internet tilida ko'p bo'g'inli so'z va iboralar, ayniqsa, salomlashuv shakllari, ot va fe'l birikmalari tezkor va qulay muloqot uchun qisqartirilgan holda ishlatiladi. Ushbu qisqartmalar so'z tarkibidagi muayyan tovush yoki harflarni qisqartirish orqali shakllanadi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, bunday qisqartmalar hosil bo'lish usuliga ko'ra quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

1. Bosh va oxirgi harflar asosida qisqartirish – So'zning birinchi va oxirgi harflari olinib, ixcham shaklga keltiriladi.

2. Bosh va o'rta qism harflari asosida qisqartirish – So'zning boshlang'ich va markaziy qismidan harflar olinadi.

3. Bosh, o'rta va oxirgi harflarni qo'shish orqali qisqartirish – So'zning turli qismlaridan harflar tanlanib, yangi qisqartma hosil qilinadi.

4. Raqam va harflar kombinatsiyasi orqali qisqartirish – Ba'zi so'zlar sonlar bilan almashtiriladi yoki harflar bilan birga qo'llanadi. Quyida ushbu qisqartmalarning har bir turi bo'yicha misollar keltirilgan.

多音节词首尾字母截取类缩略语

排序	首尾字母截取类缩略语 (网络语)	乌兹别克语原词语 正确写法	对应的汉语词语
1	Kn	Keyin	然后
2	Ln	Lekin	但是
3	Mn	Mumkin	也许
4	Bn	Bilan	和
5	Jb	Javob	回答
6	Kk	Kerak	应该要；需要
7	Bb	Bo'lib	变得
8	Ol	Olaqol	拿吧

9	Tg	Telegram	电报
10	Qb	Qilib	做

O'zbek internet tilida ayrim uzun so'z va iboralar tezkor muloqotni ta'minlash maqsadida ularning turli qismlaridan harflar tanlanib, qisqartma hosil qilinadi. Bu usul, asosan, so'zning bosh, o'rta va oxirgi qismlaridan muhim harflarni ajratib olish orqali amalga oshiriladi.

Bunday qisqartmalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- So'zning muhim qismlari saqlanib, uning umumiy ma'nosi anglashiladigan darajada qoladi.
- Ovoz va talaffuz qulayligi hisobga olinadi.
- Muloqot tezligini oshirishga xizmat qiladi.

多音节词首中尾字母截取类缩略语

排序	首中尾字母截取类缩略语	乌兹别克语原词语	对应的汉语词语
	(网络语)	正确写法	
1	Chndm	Tushindim	明白了
2	Rhmt	Rahmat	谢谢
3	Inet	Internet	网络
4	Qnsn	Qanisan	你在哪儿呢
5	Uzq	Uzoq	太远
6	Yqn	Yaqin	太近
7	Shrn	Shirin	很甜
8	Oqot	Ovqat	膳食
9	Nma	Nima	什么
10	Slm	Salom	你好

Xulosa: Internetning hayotimizdagi o'rni tobora ortib borishi bilan yangi til hodisasi sifatida internet tili ham shakllanib, rivojlanmoqda. Internet muloqotida tezkorlik va ixchamlik muhim ahamiyat kasb etgani sababli, turli qisqartmalar keng qo'llanilmoqda. Xitoy va o'zbek internet tillarida qisqartmalar turli usullarda shakllansa-da, ularning asosiy vazifasi muloqotni soddalashtirish va samaradorligini oshirishdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xitoy internet tilida qisqartmalar asosan pinyin transkripsiyasi va raqamlar orqali hosil qilinadi. Ularning shakllanishida fonetik o'xshashlik muhim o'rin tutadi. O'zbek internet tilida esa qisqartmalar so'zning muhim tovush yoki harf qismlarini tanlab olish orqali shakllantiriladi. Bunda so'zning boshlang'ich, o'rta va oxirgi qismlaridan muhim tovushlarni ajratib olish, ayrim harflarni tushirib qoldirish yoki raqamlar bilan almashtirish usullari qo'llaniladi. Har ikkala tilda qisqartmalarining shakllanishi o'ziga xos bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi bir xil – muloqotni yanada qulay, ixcham va tezkor qilish. Texnologiyalar rivojlanishi va raqamli muloqotning ahamiyati ortib borishi bilan internet tili ham takomillashib, yangi qisqartmalar

yuzaga kelishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Bu esa kelajakda internet tilining yanada kengayib, yangi shakllarga ega bo'lishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. 姜珊、浅析网络语言中的缩略词[J]。哈尔滨职业技术学院学报，2009（4）：124-125
2. 张晓峰，网络语言缩略词特性浅析[J]。安徽文学，2009（2）：338-339。
3. 高岩.网络流行语言与语言文字规范化研究[J].语文建设,2013(9):24-25页